



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

7 (69) 2024

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

7 (69)

2024

июль

www.bsmi.uz

<https://newdaymedicine.com> E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

UQK 616-053.2-071

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY RIVOJLANISHINING BA'ZI BIR ANTROPOMETRIK XUSUSIYATLARI

Shermanov Abduvali Ortiqovich <https://orcid.0009-0005-8657-5909>

Alfraganus University, O'zbekiston, Toshkent sh, Yunusobod tumani, ko'cha Yuqori Qoraqamish, 2A

✓ Rezyume

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tana, qo'l va oyoqlarning antropometrik ko'rsatkichlari har ikki jinsdagi 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan 864 nafar bolada o'Ichandi. Tekshiruvlar Alekseev V.P. (1966), Sparanskiy V.S., Zaychenko A. I. (1980, 1988, 2011), Avtandilov G.G. (1990) Shamirzaev N.X. (1998). Natijalar statistik jihatdan baholandi. Yuqori va pastki ekstremitalarning uzunligi va ularning nisbati o'rtasida ishonchli bog'liqlik aniqlandi. 2 va 4 yoshli bolalar o'rtasida yanada jadal o'sish kuzatildi. Maktabgacha yoshda - 5 yoshdan 7 yoshgacha o'sish sur'ati sekinlashdi. Pastki ekstremitalarda o'sish yanada dinamik edi. Yuqori va pastki ekstremitalarning o'sishining notekisligi 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarga xos edi.

Kalit so'zlar: jismoniy rivojlanish, tana uzunligi, tana vazni, bosh atrofi, ko'krak aylanasi, qo'l uzunligi, yelka uzunligi, yelkaning yog'i, kaft uzunligi.

АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Шерманов Абдували Ортикович <https://orcid.0009-0005-8657-5909>

Alfraganus University, Узбекистан, город Ташкент, Юнусабадский район, ул. Юкори Каракамыш, 2А

✓ Резюме

Антропометрические параметры конечностей были измерены у 864 детей обоего пола в возрасте от 2 до 7 лет. Исследования проводились по методике Алексеева В.П. (1966), Спаранский В.С., Зайченко А.И. (1980, 1988, 2011), Автандилов Г.Г. (1990) Шамирзаев Н.Х. (1998). Результаты были статистически оценены. Выявлена достоверная корреляция между длиной верхних и нижних конечностей и их пропорциями. Более интенсивный рост наблюдался у детей 2-4 лет. В дошкольном возрасте – 5–7 лет темпы роста замедляются. Рост был более динамичным в нижних конечностях. Неравномерность роста верхних и нижних конечностей была характерна для детей 2-7 лет.

Ключевые слова: физическое развитие, длина тела, масса тела, окружность головы, окружность груди, длина руки, длина плеч, плечевой жир, длина ладони.

ANTHROPOMETRIC FEATURES OF PHYSICAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL AGE CHILDREN

Shermanov Abduvali Ortiqovich <https://orcid.0009-0005-8657-5909>

Alfraganus University, Uzbekistan, Tashkent, Yunusabad district, st. Yukori Karakamysh, 2A

✓ Resume

Anthropometric parameters of the extremities were measured io 864 children of both genders aged 2 to 7 ears. The investigations were carried out according to the methods of Alekseev V.P. (1966), Sparansky V.S., Zaychenko A.I. (1980, 1988, 2011), Avtandilov G.G. (1990) Shamirzaev N.Kh. (1998). The results were statistically evaluated. A reliable correlation was revealed between the length of the upper and lower extremities, and their proportions. A more intense growth was observed between 2- and 4-year-old children. In preschool age - 5 to 7 ears the rate of growth was slowed down. The growth was more dynamic in the lower extremities. Unevenness of the growth of the upper and lower extremities was characteristic of 2-to-7-year-old children.

Key words: physical development, body length, body weight, head circumference, chest circumference, arm length, shoulder length, shoulder fat, palm length.

Dolzarbligi

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli isloxtlar va qarorlarni qabul qilinishi munosabati bilan, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishini aniqlash va muntazam davriy o‘rganib borish zaruriyati tug‘ildi. Shu munosabat bilan bolalarning antropometrik ko‘rsatkichlarini turli ijtimoiy-maishiy va ekologik sharoitlarda yashovchi bolalarning jismoniy rivojlanishini o‘rganish dolzarb muammo hisoblanadi. Kelajak avlodni barkamol o‘shib rivojlanishi bu millat kelajagi va xavfsizligini ta‘minlovchi muxim omildir. Tananing o‘lchamlari va tuzilishi morfofunktsional jarayonlarning ko‘rinishi bo‘lib, organizm o‘shish darajasini belgilovchi muhim ko‘rsatkichdir. Organizmning hayot faoliyati, atrof-muhitdagi turli xil omillarning zararli ta‘sir turg‘unligi uning barcha a‘zo va tizimlari integrativ faolligi ko‘rinishi kabi aniqlanadi. Antropometrik belgilar organizmning rivojlanishi va o‘shishi jarayonlari obyektiv ko‘rsatkichlari hisoblanib, ma‘lum darajada bu jarayonlar qonuniyati, yo‘nalishi va darajasi haqida xulosa qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun antropometrik ko‘rsatkichlarga yuzaki baho bermasdan, ularga tibbiy-klinik, ijtimoiy-gigienik va antropometrik baho sifatida qarash zarur.

Urbanizatsiyaning bolalarning o‘shish va rivojlanishiga ta‘siri turli shart-sharoitlarda o‘rganilgan [3,6,7]. Jismoniy rivojlanish aholi sog‘ligini ko‘rsatuvchi obyektiv va yagona ko‘rsatkichdir [1,4,9]. Ko‘pchilik tadqiqotchilar [2,5,8] boshqa antropometrik ko‘rsatkichlarni hisobga olmagan holda aholining bir guruhining jismoniy rivojlanishiga qarab, aholining sog‘ligi haqida xulosa chiqarish mumkin, deb hisoblashadi. O‘sayotgan organizmning antropologik ko‘rsatkichlari, har bir vaqt oraliqdagi rivojlanish yetuklik va morfofunktsional holati jarayonini belgilaydi [1,4]. Bu yondoshishning to‘g‘riligi aholining yuqori darajadagi sog‘lomligiga belgilanganidek jismoniy rivojlangan ish ko‘rsatkichlari bilan tasdiqlanadi.

Bolalikning birinchi davri 4 yoshdan boshlanib, 7 yoshda tugaydi. Bu vaqtni ba‘zi tadqiqotchilarning (Osmanov V.A., 1996) qayd qilishlaricha “o‘shishning birinchi sakrashi” deb ataluvchi holat davomida ozgina o‘shish kuzatiladi, lekin bu o‘shish hamma bolalar uchun bir hil emasligiga e‘tibor berish lozim. 6 yoshdan boshlab birinchi haqiqiy tishlar paydo bo‘ladi.

1 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan oraliq neytral bolalik deb ataladi, chunki bolalar va qizlar bir-biridan tana shakli va o‘lchamlari bilan farq qilmaydi. Shuni ham e‘tiborga olish kerakki, hatto shu paytdanoq qizlarda teri osti yog‘ qavati miqdori ko‘prok bo‘ladi [2,8].

Bola rivojlanishining maktabgacha davrida katta va ko‘pincha foydalanilmaydigan psixofiziologik zaxiralari mavjud.

Biologik xususiyatlariga ko‘ra maktabgacha yosh quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1. yangi tug‘ilgan chaqaloqlik-hayotning birinchi 4 haftasi;
2. go‘daklik - 1 yilgacha;
3. erta bolalik - 1 yildan 3 yilgacha;
4. Maktabgacha - 3 yoshdan 6 (7) yoshgacha.

Bola hayotining birinchi yillari tananing tez o‘shishi va rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Morfologik parametrlar jadal o‘shib boradi.

Tug‘ilgandan uch yoshgacha nerv-mushak apparatlarining qo‘zg‘aluvchanligi va labilligi sezilarli darajada oshadi, ammo mushaklarning kuchi hali ham juda past. Bolaning barcha bo‘g‘im apparatlari va mushaklarning zaif rivojlanishi tufayli katta harakatchanlik bilan ajralib turadi.

Erta yoshda bola yetarli jismoniy to‘liq rivojlanmagan. Faol harakatlar ikki yoshli bolalarda uyg‘oqlik vaqtining 70% ni, uch yoshli bolalarda esa kamida 60% ni tashkil qilishi aniqlandi. Asta-sekin, harakat rivojlanishi bilan bolalar ma‘lum bir maqsadga muvofiq faoliyatni egallaydilar. Biroq, miyya yarim sharida konsentratsiya jarayonlari yetishmasligi tufayli bolalarning harakatlari noaniq, muvofiqlashmagan bo‘ladi. Bu yoshda diqqat hali ham beqaror va bolalar uzoq vaqt davomida bir narsaga e‘tibor qarata olmaydilar va tezda charchaydilar.

3 yoshdan 6 yoshgacha (maktabgacha yosh) tananing barcha o‘lchamlari nisbatan teng ravishda oshadi. Tana uzunligining yillik o‘shishi 5-6 sm, tana vazni taxminan 2 kg. Ammo bu davrning oxiriga kelib, o‘shish tezlasha boshlaydi: bir yil ichida bola 8-10 sm qo‘shadi. Bunday tez o‘shish tanadagi endokrin o‘zgarishlar bilan bog‘liq (tez o‘shishning ikkinchi davri 13-14 yoshdagi bolalarda namoyon bo‘ladi).

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tananing nisbati sezilarli darajada o'zgaradi: qo'llar va oyoqlar tanaga qaraganda ancha uzunroq va tezroq o'sadi. Agar 6-7 yoshga kelib tananing uzunligi 2 barobar oshsa, qo'llarning uzunligi 2,5 barobardan, oyoqlarning uzunligi esa 3 barobardan oshadi.

Mushak to'qimalarining o'sishi asosan mushak tolalarining qalinlashishi tufayli sodir bo'ladi. Bolada avval tos suyagi va oyoq mushaklari, so'ngra (6-7 yoshdan boshlab) qo'l mushaklari rivojlanadi. 5 yoshga kelib mushaklarning kuchi oshadi. Biroq, mushaklarning tez charchashi va mushak-skelet tizimining nisbiy zaifligi tufayli maktabgacha yoshdagi bolalar hali mushaklarning uzoq muddatli taranglikga qodir bo'lmaydi.

6-7 yoshga kelib, miyya nerv hujayralarining yetukligi tugaydi. Biroq, bolaning asab tizimi hali yetarlicha barqaror bo'lmasdan qo'zg'alish jarayonlari tormozlanish jarayonlaridan ustun turadi. Bolalarda yurak faoliyatini asabiy tartibga solish hali ham nomukammal.

Yurakning notekis tezligi va kuchi hatto dam olishda ham kuzatiladi. Jismoniy zo'riqish bilan yurak mushaklari tez charchaydi. Erta va maktabgacha yosh nafaqat jismoniy, balki harakat rivojlanishida ham sezilarli o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Bola katta bo'lgan sari harakatlar soni ham ortadi. Bolalar butun uyg'oqlik vaqtining 50-60% holatida harakat qilishlari kerak. Harakat faolligining intensivligi - 2 yoshdagi bolalarda taxminan 1 daqiqada o'rtacha harakatlar soni - 38-41, 2,5 yoshda - 43-50, 3 yoshda - 44-51ni tashqil qiladi. Bu shuni anglatadiki, harakatlarning bir martalik davomiyligi juda kichik - o'rtacha bir necha soniyadan 1,5 daqiqagacha. Bolalar o'z harakatlari va pozitsiyalarini kuniga 550-1000 martagacha tez-tez o'zgartiradilar, buning natijasida turli mushak guruhlarining muqobil tarangligi va bo'shashishi kuzatiladi, shuning uchun bolalar charchamaydi.

"Haqiqiy" fiziologik yosh ko'pincha tananing o'sish tezligi va uning rivojlanish sharoitlaridagi farqlar tufayli taqvim (pasport) yoshiga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun turli yoshdagi bolalarning funksional va moslashuvchan imkoniyatlarini o'rganish uchun individual yetuklik ko'rsatkichlarini baholashga e'tibor berish kerak. Faqatgina yoshga bog'liq va individual yondashuvlarning kombinatsiyasi sog'liqni saqlashga, bola tanasi va shaxsiyatining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadigan yetarli gigienik va pedagogik tadbirlarni ishlab chiqishni ta'minlashi mumkin.

Bolalar va o'smirlarning yoshga bog'liq rivojlanish bosqichlarining tabiiy biologik belgisi tana hujayralarining o'sishi va differentsiatsiyasi davrlarining almashinishidir. Ushbu bosqichlarning har birida rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular hech qachon boshqa bosqichda bir xil kombinatsiyada sodir bo'lmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bosqichlarni ko'rib chiqamiz.

Shunday qilib, bola hayotining birinchi yilida rivojlanishning eng muhim vazifalaridan biri hal qilinadi - antigravitatsiya reaksiyalarini amalga oshirishga tayyorgarlik: o'tirish, turish, tik yurish. Bu yoshda eng qizg'in bo'lgan uzunlik va vazn ortishi jarayonlari aynan shu narsaga qaratilgan. Mushaklar va suyaklar mustahkamlanadi. Umurtqa pog'onasining asosiy ajralib turadigan xususiyati egriliklarning amaliy yo'qligi. Bu egriliklarning rivojlanishi bolaning yetarli motor faolligini osonlashtiradi.

Go'daklik davrida ozuqa moddalari zaxirasi, skelet va ichki organlarni mexanik himoya qilish, shuningdek tana haroratini ushlab turish uchun teri osti yog' zaxirasi hosil bo'ladi. Ushbu davrida tashqi dunyo bilan birlamchi tanishish va faol aqliy rivojlanish vujudga keladi. Shuning uchun kattalar bilan, ayniqsa ona bilan aloqalar katta ahamiyatga ega.

Erta va birinchi bolalik davrida mikrosotsiumda ba'zi mustaqil vazifalarni bosqichma-bosqich egallash bilan tavsiflanadi. Ko'pgina shaxsiy xususiyatlar shakllanadi, bola shaxsiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu davrda skeletning ko'plab elementlarining ossifikatsiyasi davom etadi, sut tishlarining tushishi sodir bo'ladi. Harakat faolligi keskin oshadi, skelet mushaklarining tuzilishi va funksionalligi o'zgaradi. Nerv va mushak tuzilmalarining morfologik va funksional rivojlanishi tufayli qo'llarning nozik koordinata qobiliyatlari shakllanadi.

5-6 yil ichida tana uzunligida yarim o'sish sakrashi kuzatiladi va bu vaqtda oyoq-qo'llar tanagaga qaraganda tezroq o'sadi.

Bolalikning alohida davrlari o'rtasida qat'iy belgilangan chegarani chizish qiyin, ammo boshqa yoshdagilar orasida maktabgacha yosh ayniqsa muhimdir. Bu yoshda kelajakda insonning jismoniy rivojlanishi, salomatligi va xarakteri uchun poydevor qo'yiladi. Maktabgacha yoshda bolalarning genetik xususiyatlari aniq namoyon bo'ladi. Bolalikning bu davri bola tanasining barcha funksiyalarini bosqichma-bosqich takomillashtirish bilan tavsiflanadi. Bu yoshdagi bola haddan tashqari plastika bilan ajralib turadi. Tanning mushak faoliyatining ta'siri yanada muhimroq bo'ladi, chunki harakat o'sayotgan organizmning biologik ehtiyojidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi erta bolalikka qaraganda kamroq intensivlikka ega. Bir yoshli bolaning tana vazni 6-7 yoshga kelib ikki baravar ko'payadi. Agar hayotning 1-yilida o'sish 20-25 sm ga oshsa, 4-5 yoshda u faqat 4-6 sm ga oshadi. 5 yoshga kelib, bolaning o'sishi ikki baravar ko'payadi. 5-7 yil ichida o'sish intensivligi yana oshadi. Bu davr "birinchi uzayish" davri deb ataladi.

Metodologiya:

Tadqiqot materiali sifatida sog'lom onalardan tug'ilgan 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan. Toshkent shahri bolalar bog'chalarining 864 ta ikkala jinsga mansub sog'lom bolalari xizmat qildi. Tadqiqotlar bolalar bog'chasining meditsina xonasida bo'y o'lchagich lineyka, tazomer, kaliper va meditsina tarozisi yordamida o'tkazildi. Olingan antropometrik natijalar sm da, og'irligi esa kg da o'lchangan.

Bolalarni antropometrik tadqiq qilish Alekseev V.P. (1966), Speranskiy V.S." Zaychenko A.I. (1980-1988). Avtandilov G.G. (1990). Shomirzaev N.H (1998) uslublari bo'yicha o'tkazildi. Tanani xarakterlovchi alohida qismlar va tana proporsiyasini ko'rsatuvchi asosiy o'lchamlar ikkita antropometrik nuqtalar o'rtasidagi proeksion chiziqlar sifatida aniqlandi. Morfometrik natijalar variatsion statistik usulda ishlandi. $P \leq 0,05$ ni qanoatlantiruvchi farqlar hakikiy deb hisoblandi.


Natijalar va tahlillar

Biz olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki tana og'irligining ko'payishi 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lib, shundan og'irlik ortishi intensivligi 2 va 3 yoshlar oralig'iga to'g'ri keladi va bu bir yilda 19% ni tashkil etadi (1-jadval). 2 yoshli bolalarda bo'y o'sishi $85,0 \pm 0,7$ sm bo'lsa, 7 yoshga borib shu ko'rsatkich 16,1 $\pm 1,7$ sm gacha ko'tarilib, umumiy o'sish miqdori 36,5% ni tashkil qildi. Bu o'sishda e'tiborga molik joyi shundan iboratki, 3 yosh va 4 yosh orasida o'sish sur'ati kuchayib, o'sish miqdori 71% ga ortishi kuzatilib qolgan yoshlar orasida o'sish miqdori 2,3%-5,4% gagina bo'ladi. 6-7 yoshga borib o'sish sur'ati kamayganligi kuzatildi.

1-jadval. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy rivojlanishining ba'zi-bir antropometrik ko'rsatkichlari, M:m ($P \leq 0,05$)


Yoshi, yillarda	Qo'lning uzunligi	Yelkaning uzunligi	Yelkaning yug'onligi	Bilakning uzunligi	Kaft uzunligi	Bo'y uzunligi	Tana og'irligi
2	36,8 $\pm$ 0,6	14,3 $\pm$ 0,3	3,2 $\pm$ 0,1	13,2 $\pm$ 0,2	9,3 $\pm$ 0,2	85,0 $\pm$ 0,7	12,3 $\pm$ 0,3
2,5	37,9 $\pm$ 0,4	14,4 $\pm$ 0,2	3,7 $\pm$ 0,1	13,9 $\pm$ 0,2	9,6 $\pm$ 0,1	89,7 $\pm$ 0,8	14,2 $\pm$ 0,4
3	39,4 $\pm$ 0,7	15,0 $\pm$ 0,2	3,8 $\pm$ 0,1	14,0 $\pm$ 0,2	9,8 $\pm$ 0,2	91,5 $\pm$ 2,1	14,8 $\pm$ 0,4
4	42,3 $\pm$ 1,3	15,9 $\pm$ 0,3	4,4 $\pm$ 0,3	15,0 $\pm$ 0,3	10,3 $\pm$ 0,1	98,0 $\pm$ 1,1	16,4 $\pm$ 0,2
5	44,4 $\pm$ 0,7	16,8 $\pm$ 0,2	5,3 $\pm$ 0,1	15,9 $\pm$ 0,5	11,7 $\pm$ 0,4	107,0 $\pm$ 1,1	18,3 $\pm$ 0,7
6	45,1 $\pm$ 1,0	16,9 $\pm$ 0,7	5,2 $\pm$ 0,1	16,5 $\pm$ 0,5	11,7 $\pm$ 0,2	112,8 $\pm$ 1,3	20,1 $\pm$ 0,9
7	48,0 $\pm$ 1,1	18,8 $\pm$ 0,6	5,2 $\pm$ 0,1	17,0 $\pm$ 0,3	12,2 $\pm$ 0,3	116,1 $\pm$ 1,7	21,2 $\pm$ 0,8

Maktabgacha yoshdagi bolalarda oyoq uzunligining o'sishi 64,8% gacha bo'lib, shundan 2 yoshli bolalarda 36,7 $\pm$ 1,1 sm ni, 7 yoshli bolalarda esa 60,5 $\pm$ 1,1 sm ni tashkil qildi (2-jadval). Son uzunligi bola hayotini birinchi yetti yilligida 48,9% gacha o'sadi (18,0 $\pm$ 0,3 sm dan 26,8 $\pm$ 0,5 sm gacha). Son aylanasi esa bor-yo'g'i 18% ga oshadi. 2-7 yosh oralig'ida bolalar uzunligi 40% gacha o'sadi, bu esa boldirning son uzunligiga qaraganda o'sishda orqada qolishini ko'rsatadi. Boldir aylanasi 23,8% ga oshadi. Oyoq kafti uzunligi 28,9% gacha o'sishi kuzatildi.



2-jadval. Maktabgacha yoshdagi bolalarda oyoq soxasi o'sishining antropometrik ko'satkichlari, M:m ($P \leq 0,05$)

Yoshi (yillarda)	Oyoq uzunligi	Son uzunligi	Son aylanasi	Boldir uzunligi	Boldir aylanasi	Oyoq panjasi uzunligi
2	36,7±1,1	18,0±0,3	25,6±0,6	18,0±0,4	19,3±0,3	14,9±0,4
2,5	39,6±0,7	19,0±0,5	28,3±0,8	19,6±0,4	20,1±0,4	14,9±0,3
3	42,0±1,0	19,9±0,4	26,4±1,1	22,7±0,4	21,1±0,5	15,3±0,4
4	45,0±0,6	22,1±0,5	29,3±0,6	22,0±0,3	22,2±0,6	15,7±0,3
5	51,7±0,7	23,7±0,5	30,0±0,7	24,1±0,5	21,9±0,7	16,5±0,4
6	56,3±1,1	25,5±0,4	30,8±0,6	24,9±0,4	23,2±0,4	18,0±0,2
7	60,5±1,1	26,8±0,5	30,2±1,0	25,2±0,2	23,9±0,1	19,2±0,3



Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, o'zbek qiz va o'g'il bolalarda oyoq va qo'l mutanosibligi o'zaro kam farq qiladi. Qo'l va oyoq uzunligi va proporsiya o'rtasidagi ishonchli aloqa, bu paytdagi mukammal rivojlanish borayotganligidan dalolat beradi. O'sishning eng intensiv davri 2-4 yoshga to'g'ri keladi, maktabgacha yoshdagi bolalarda (5-7 yosh) bo'y o'sishi sekinlashadi. Qo'l va oyoq usishi jarayoni tezroq boradi. Bu esa bolalarning shu yosh davrida intensiv harakat qilishi bilan bog'liq deb hisoblaymiz.

Xulosalar

1. Ushbu izlanishlar natijasida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar rivojlanishi ular skeletining alohida qismlari uzunligining notekisligi, shuningdek oyoq va qo'l o'sishi notekisligi bilan tavsiflanadi.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda, ya'ni 5-7 yosh oralishda oyoq va qo'lning o'sish jarayonining tezlashishi kuzatiladi, bu holat tanada yig'iladigan teri osti yog' qavatlarining ko'payishi yoki kamayishiga qarab doimiy ravishda o'zgarib boradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kornev M.A., Agafonova N.N. Динамика остеогенеза у детей и подростков с разным типом соматического развития. //Морфологиya. 1998;1/13(3):60.
2. Nikityuk B.A "Chesov VL. Морфология человека. /М.: Izd. MGU, 1990; 337 .
3. Praxin N.I., Shepko Ye.L. Особенности соматического развития детей дошкольного и младшего школьного возраста, проживающих в различных экологических условиях Севера и Сибири. //Новости спортивной и медитсинской антропологии. //Йежекварт. научно-информ. sb. М" 1991;3(7):59.
4. Shamirzaev N.X. i dr. Морфометрическая характеристика отсенки физического развития детей и подростков. /Методическая разработка. Tashkent, 1998; 21.
5. Shaporenko P.F. Принципы пропорциональности в соматогенезе. //Vinnitsa, 1994; 225.
6. Loka R. et al. A comporativc study of the growth of South-East Asian children in South-West Sydney bogn in Aystralia and overseas. //J. Paediatr Child Health. 1994;30(5):436-8.
7. Volanski N. Ecologie humaine ct problemes de demographie. //Eso1. hum. 1991;9(1):7-31.
8. Haywood, K. M., and Getchell, N. (2019). Life Span Motor Development, 7th Ed. Champaign, Ill: Human Kinetics.
9. Hernández Luengo, M., Álvarez-Bueno, C., Pozuelo-Carrascosa, D. P., Berlanga-Macías, C., Martínez-Vizcaíno, V., and Notario-Pacheco, B. (2019). Relationship between breast feeding and motor development in children: protocol for a systematic review and meta-analysis. //BMJ Open 9:e029063. doi: 10.1136/bmjopen-2019-029063
10. Hestbaek L., Andersen S. T., Skovgaard T., Olesen L. G., Elmose M., Bleses D., et al. (2017). Influence of motor skills training on children's development evaluated in the motor skills in PreSchool (MiPS) study-DK: study protocol for a randomized controlled trial, nested in a cohort study. //Trials 2017;18:400. doi: 10.1186/s13063-017-2143-9

Qabul qilingan sana 20.06.2024